



UDK. 303, 303.7, 303.73, 303.732, 303.732.3

Gulbanbegin JAMOLOVA,
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti NTM dotsenti v.b
E-mail: gulbanbeginjamolova@gmail.com

Shaxrisabz davlat pedagogika universiteti professori P.Jalolova taqrizi asosida

TALABALARDA MILLIY IDENTIKLIKNI RIVOJLANТИRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Zamonaviy ilm-fanda iqtidor konsepsiyasini yaratish sohasidagi ilmiy-nazariy tadqiqot natijalari amaliy psixologik hamda pedagogik izlanishlar shu bilan birga zamonaviy ta'lim amaliyotida keng foydalilmoqda. Talabalarda iqtidorning rivojlanganligini tashxis etishning diagnostik vositalarini ishlab chiqishga doir qator tadqiqotlari amalga oshirilmoqda. Pedagogika, ta'lim amaliyotida taklif etilgan nazariy modellarga tayaniib, turli yosh davrlarida iqtidorni rivojlantrishning qonuniyatlarini aniqlashtirish, mazmuni, tashkiliy shakl, metod hamda vositalarini yaratish bo'yicha davlatimizda qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Maqsadimiz o'quv-tarbiya jarayonida talabalarning iqtidorini rivojlantrish mazmuni, tashkiliy shakl, metod hamda vositalarini tavsiflashdan iborat.

Kalit so'zlar: Shakl, metod, tavsif, vosita, intellekt, psixologik muammolar, qobiliyat, fikr, daraja.

IMPROVING THE PEDAGOGICAL MECHANISM OF NATIONAL IDENTITY DEVELOPMENT IN STUDENTS

Annotation

Modern educational practice heavily draws on the findings of practical psychological and pedagogical research, as well as scientific and theoretical study pertaining to the development of the notion of talent in modern science. Research is underway to create diagnostic instruments for evaluating pupils' talent development. In our nation, a number of scientific studies are being carried out based on theoretical models put out in pedagogy and educational practice to ascertain the patterns of talent development at various age periods, the creation of content, organizational forms, methods, and instruments. Our objective is to provide an overview of the methods, techniques, material, and organizational structure used in the educational process to foster students' talents.

Key words: Form, method, description, tool, intelligence, psychological problems, abilities, thought, degree.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Annotatsiya

Результаты научно-теоретических исследований в области создания концепции таланта в современной науке, а также практических психологических и педагогических исследований широко используются в современной образовательной практике. Проводится серия исследований для разработки диагностических инструментов оценки развития талантов у студентов. На основе теоретических моделей, предложенных в педагогике и образовательной практике, в нашей стране проводятся ряд научных исследований для определения закономерностей развития талантов в разные возрастные периоды, создания содержания, организационных форм, методов и инструментов. Наша цель — описать содержание, организационную форму, метод и средства развития талантов студентов в образовательном процессе.

Ключевые слова: Форма, метод, описание, инструмент, интеллект, психологические проблемы, способности, мысль, степень.

Kirish. «Intellekt» lotin tilidan olingan bo'lib, aql, idrok, zehn ma'nolarini anglatadi. Intellekt insonning bilish qobiliyati, mustaqil mantiqiyl fikrlash, anglash, ijodiy tafakkur qilish salohiyatini belgilaydi. U ma'naviyatga yaqin bo'lib, insonning ruxiy-hissiy tuyg'usi, bilish qobiliyati va aql-zakovati, aqliy yetukligi va yuksaklikka intilishi bilan uyg'ulashadi.

Bundan tashqari iqtidorli talabalarini o'qitish hamda ulardagi mavjud iqtidorni takomillashtirish metodikasini yaratishda, ta'lim berish turlarini, har bir o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish kerak

Asosiy qism. Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, o'qitish, tarbiyalash hamda ularning intellektual qobiliyatlarini yanada takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotchilar tomonidan ma'lum doirada ilmiy-nazariy, amaliy natijalar olinmoqda. Biroq, bunday talabalar bilan ishslash jarayonida iqtidor

turlarining rang-barangligi, bir-biriga zid yondashuvlar, tamoyillar va qonuniyatlar, shuningdek iqtidorli talabalar bilan ishlovchi maxsus tayyorgarlikga ega mutaxassislarining yetishmasligi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha pedagogik va psixologik muammolar haligacha to'liq o'zining pedagogik yechimini topmagan[1].

Psixologik nuqtai-nazardan olib qaraganda iqtidor – bu anglash, bilish, his-hayajon, jo'shqinlik, ma'suliyatlilik iroda, serg'ayratililik kabi ruhiy holat va jismoniy munosabatlarni hamda ular bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qobiliyatlar majmuasidir. Shu bilan birga iqtidor turli ko'rinishlarga ega bo'lib, u bir shaxsni yoshiga ko'ra ikkinchisidan ajratuvchi har xil qibiliyatlar orqali aniqlanadi. Iqtidor xususiyatlariga qarab quyidagi shartli belgililar bilan farqlanadi [3]:

namoyon bo'lish tezligiga qarab – iqtidorli, ilm-fanga chanqoqlik, o'ta iqtidorli, yuqori iqtidorli;

ruhiy rivojlanishining tezligiga qarab – yoshiga monand iqtidor yoki yoshidan sezilarli darajada ilgarilab ketgan iqtidor;

namoyon bo'lishining kengligiga qarab – umumiylasusxus iqtidor;

namoyon bo'lishining ko'rinishiga qarab – ochiq yoki yashirin;

yosh xususiyatlariga qarab – barqaror, o'tuvchi, shaxsxiy, irlsiy, nasl-nasabi va boshqa xususiyatlariga ko'ra.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shaxsning yosh xususiyatiga doir iqtidor mavzusiga oid anchagina nazariy va amaliy manbalar to'plangan, masalan D.B.Bogoyavlenskaya, N.F.Vishnyakov, V.A.Kruteskiy, O.V.Kondrateva, T.U.O'tapov, N.N.Alimov, F.T.Exsonova, G.N.Ibragimova, D.Gilford, Dj.Renzulli, Dj.Raven va boshqalar.

V.A.Kruteskiyning ilmiy mehnatlarda uzoq vaqtlar davomida ilmiy ahamiyatini saqlab qolgan ta'lim oluvchilarning matematik qobiliyatlarini shakllantirish, uning xarakteri va tuzilishi haqidagi nazariy ma'lumotlarni ilmiy-uslubiy asoslab, tahlil qilingan. Bu tadqiqotlarda hali yakuniy qoniqarli javob olinmagan va hanuzgacha dolzarb muammo bo'lib qolgan matematikaga oid qobiliyatlar haqida muammoning ko'plab qiyin va munozaralni nazariy savollari muhokama qilingan [4].

E.P.Ilinning ilmiy mehnatida shaxs qobiliyatlarini aniqlashda quyidagi masalalar: qobiliyatli shaxs kim?; iqtidor deganda nimani tushunamiz?; qobiliyat degan nima?; daholik; umumiylasusxus qobiliyat, iqtidor to'g'risida; iqtidorning turlari; qandaydir ijodiy qobiliyatga iqtidorning bog'liqligi; iqtidorning ko'p qirraliligi, mazmuni, iqtidorli ijodiy shaxsni baholash metodlari to'g'risida nazariy ma'lumotlar bayon etilgan [6].

K.K.Platonovning ta'kidlaganidek: «qobiliyatlarini aniqlash to'g'risidagi ta'limotning individual-psixologik hodisalar sifatida rivojlanish tarixi qadimdan boshlanadi». Qibiliyatlar tushunchasi fanga birinchli bo'lib Platon (miloddan avvalgi 428-348) tomonidan kiritilgan. Uning fikriga ko'ra: «hamma ham bir xil qobiliyatli emas, chunki insonlar o'z qobiliyatlariga ko'ra har xil toyfaga tegishli bo'ladi: ayrimlari jamiyatni yaxshi boshqarish uchun, boshqalari atrofdagi insonlarga yordam berish uchun, boshqalari qishloq xo'jaligi, qurilish va hunarmandchilik, musiqa va sanaat uchun tug'ilgan». Aynan Platonning tug'ma qobiliyat to'g'risidagi g'oyasidan insonlarning jamiyatdagi ijtimoiy mutonosibligi kelib chiqadi, u inson tabiatini bir vaqtning o'zida ikkita yoki bir nechta kasb-hunarni, ikkita ilmmi ko'ngildegidek bajara olmaydi, deb aytgan.

Inson qobiliyatlarini o'rganishning yangi bosqichi XIX asrning ikkinchi yarmida, psixologik testlar paydo bo'lishi bilan birga individual intellektual farqlar psixologiyasi yangi ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanishidan boshlanadi [6].

Ingлиз olimi Frencis Galton 1896 yildan boshlab iqtidor psixologiyasiga oid bir nechta ilmiy asarlarini nashr etadi (masalan, «Tug'ma daho» asari), unda u shaxs qobiliyatlarining ota-onalardan bolalarga o'tishi haqida o'z fikrlarini bayon etadi. U selektiv tanlash orqali ingliz millatini yaxshilash uchun aqliy qobiliyatlarni samarali oshirish yo'llarini ishlab chiqish

kerak degan xulosaga keladi. 1883 yilga kelib uning bu ilmiy g'oyasi «evgenika» deb nomlangan. Shu yilning o'zida F.Galton qobiliyatlarining individual farqlari bo'yicha birinchli ilmiy ish hisoblangan «Inson qobiliyatlarini tadqiq qilish va uning rivojlanishi» nomli ilmiy asarini nashr etadi. Ammo, F.Galton o'z g'oyalarini isbotlash uchun psixologik jihatdan unchalik samarador bo'lmagan testlar va ko'rsatkichlarni tanlagan edi, natijada uning g'oyalari ko'p utmay muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Tadqiqot va natijalar. Shaxsning iqtidoriga bo'lgan kuchli e'tibor ko'plab muammo va savollarni keltirib chiqardi. Ulardan bir nechtasini qo'yida ko'rib chiqamiz:

- Iqtidorli shaxsni g'ayritabiiy inson deb hisoblash mumkin. Sababi u boshqalardan intellektual salohiyati, tez fikrashi va aniq maqsadi bilan ajralib turadi. U nostandard va g'ayrioddiy fikrashi bilan o'qituvchi uchun noqulay ta'lim ob'ekti bo'lib hisoblanadi [9].

2. Ta'lim muassasalar o'quv rejasi, davlat ta'lim standartlari, malaka talablariga mos keladigan reproduktiv mashqlar iqtidorli talabalarning intellektual rivojiga ijobja ta'sir ko'rsata olmaydi, aksincha, ularga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Iqtidor nazariyasi hamda pedagogik ta'lim amaliyoti takomillashuvining bugungi bosqichida iqtidorni rivojlantirish to'g'risida emas, balki uni ta'lim hamda tarbiyaning turli strategiyalari, texnologiyalari doirasida qo'llab-quvvatlash to'g'risida fikrlesh mumkin. Afsuski, bugungi kunda talabaning olyi ta'lim muassasasi devorlaridan tashqarida erishgan ilmiy-uslubiy yutuqlarini saqlab qolishni ta'minlamaydi.

4. Ta'lim dargohida iqtidorli talabani tarbiyalash, aniqlash hamda samarali o'qitishda, ularning individual xususiyatlariga qaratilgan o'quv dasturlari asosida amalga oshirilishi lozim.

Iqtidorlilik – bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatini beradigan qobiliyatlarini ifodalashning yuqori darajasi.


Iste'dod – insonga har qanday turdag'i murakkab faoliyatni (o'quv, amaliy, mustaqil kasbiy) muvaffaqiyatli, mustaqil, noyob yo'llar bilan amalga oshirish imkoniyatini bera oladigan qibiliyatlar yig'indisidir.

Iqtidorlilik – bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatini beradigan qobiliyatlarini ifodalashning yuqori darajasi.

Qibiliyatlarni ifodalashning keyingi darajasi «iste'dod» tushunchasi bilan tavsiflanadi.

Iste'dod – insonga har qanday turdag'i murakkab faoliyatni (o'quv, amaliy, mustaqil kasbiy) muvaffaqiyatli, mustaqil, noyob yo'llar bilan amalga oshirish imkoniyatini bera oladigan qibiliyatlar yig'indisidir.

Bizning nazarmizda, talabalardagi iqtidorni takomillashtirishning yana bir muhim jihat, bu ulardagi talab darajasidagi nazariy bilim, amaliy ko'nikma hamda malakalarning paydo bo'lganligidir. Chunki, mazkur omillar ularning o'z ustida mustaqil ishlashi, ijodiy faoliyat bilan doimiy shug'ullanishi, sohoga oid iqtidorlikning rivojlanishiha ta'sir etadi (1-rasm).



1-rasm. Shaxs iqtidorining tarkibiy tuzilishi.

Shuningdek, ilmish ishlarmizda o'quvchi-talabalarda milliy identiklikni yuzaga keltirish hamda rivoj toptirishning o'ziga xos jihatlarini ochib berishga olib keluvchi ijtimoiy vaziyatlar, hodisalarini bilishning jarayonlarining ilmiy tomonlari, dialektik, uzviq hamda maqsadli yondashuvlarga asoslanadi.

Xulosa va takliflar. Iqtidor nazariyasi hamda ta'limga amaliyoti takomillashuvining bugungi bosqichida iqtidorni

rivojlantirish to'g'risida emas, balki uni ta'limga tarbiyaning turli strategiyalari hamda samarador texnologiyalari doirasida qo'llab-quvvatlash to'g'risida uylash mumkin. Afsuski, tadqiqotimizda bugungi kunda talabaning oliy ta'limga muassasasi devorlaridan tashqarida erishgan ilmiy-uslubiy yutuqlarini saqlab qolish ta'minlamay o'tirganligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Jamolova G.M. Понятие об электрическом заряде, расчетэлектрических цепей постоянного тока. Web of Semantics : Journal of Interdisciplinary Science (2024) <https://wom.semanticjournals.org>.
2. Jamolova G.M. Parallel tebranish konturlarini tadqiq etish. Ozbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. 2023. 1/9/1. Ijtimoiy gumanitar fanlar turkumi.
3. Musurmanova O. "Ta'limga menejerining kasbiy kompetentligi va kreativligi" modulining o'quv-uslubiy majmuasi. – Toshkent: BIIM, 2015. -288b.
4. Ochilov M. O'qituvchi odobi va nazokati. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. –B.43.
5. Ro'zieva D., Usmonbaeva Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi (metodik qo'llanma). –Toshkent: TDPU. 2013 - 116b.
6. Safarova R.G. Istiqboldagi ta'limga mazmunini modernizatsiyalashning didaktik asoslari. –Toshkent: Fan, 2009. – 240 b.
7. Sharipov Sh.S., Aripov M., Begimqulov U.Sh. va boshqalar. Bilim olishning intelektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. –Toshkent: Fan, 2011. –B.72.
8. Tojiev M., Alimov A.Ya., quchqarov D.U. Pedagogik texnologiya-ta'limga jarayoniga tatbig'I (Boshlang'ich ta'limga matematika o'qitish metodikasi fani darslarining loyihasi). –Toshkent: "Tafakkur", 2010. -148b.
9. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Brok class servis, 2018. –B. 22-27.